





2021- yil yanvar-sentabr oylarida ANDIJON VILOYATIDA xizmatlar sohasining rivojlanishi



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.





2021- yil yanvar-sentabr


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10 968,1** mlrd. so'mga yetdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,9 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)





2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	10 968,1	122,9
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	477,0	111,9
Moliyaviy xizmatlar	2 743,0	161,6
Transport xizmatlari	2 198,3	110,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 142,3	109,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	170,6	107,9
Savdo xizmatlari	3 233,6	111,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	299,1	118,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	412,4	125,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	176,4	111,3
Ijara xizmatlari	237,5	120,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	228,2	119,9
Shaxsiy xizmatlar	484,4	118,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	71,3	95,7
Boshqa xizmatlar	236,4	120,4



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



**2021- yil yanvar-sentabr****Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **29,5 %** ni tashkil etdi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlari hajmida eng past o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,6 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmda **31,7 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida Me'morchilik sohasidagi xizmatlarining ulushi ham eng kichik bo'lgan – **0,8 %**.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlari (**161,6 %**), ta'lim sohasida (**125,1 %**), boshqa xizmatlari (**120,4 %**), qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida Moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (**128,6 %**).



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **29,5 %** ni tashkil etdi, bu esa **3 233,5 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **2 612,8 mlrd. so'mga** yoki umumiy hajmining **31,7 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2020- y. yanvar-sentabr

Xizmatlar hajmi
2 612,8 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
99,2 %

Ulushi
31,7 %



2021- y. yanvar-septabr

Xizmatlar hajmi
3 233,5 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
111,6 %

Ulushi
29,5 %




2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **84,3 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar –sentabr oylarida)

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

7,0 %

84,3 %

8,7 %



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar



**2021- yil yanvar-sentabr****Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **2 743,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020-yil yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **1 671,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **25,0** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **20,3** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **1 071,9** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **161,6** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati **128,6** % ga yetgan.

**2021- yil yanvar-sentabr****Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlarda moliyaviy xizmatlarning ulushi **63,4 %** ni tashkil etdi.

2021-yilning sentabr oyi yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **3,0 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)





2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)

2020- y. yanvar-sentabr

2021- y. yanvar-sentabr

420,2
mlrd. so'm

111,7 %

5,1 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

**Jami hajmdagi
ulushi**

Hajmning o'sishi

56,7 mlrd. so'mga

477,0
mlrd. so'm

111,9 %

4,3 %






2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **94,8 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2021- y. yanvar-sentabr



**Telekommunikatsiya
xizmatlari**



**Boshqa aloqa va
axbo-rotlashtirish
xizmatlari**



Noshirlik xizmatlari



**Kompyuter dasturlashtirish
xizmatlari**



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**301,6
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**412,4
mlrd. so'm**

**2020- y.
yanvar-
sentabr**



**2021- y.
yanvar-
sentabr**

2021- yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim soha-sidagi xizmatlar hajmi **412,4** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **3,8 %** ni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **125,1 %** ni tashkil etdi.

106,9 %

O'sish sur'atlari, % da

125,1 %

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmatlar hajmi **301,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish **106,9 %** darajasi qayd etilgan.



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

140,0

170,6

2020- y.
yanvar-sentabr

2021- y.
yanvar-sentabr



O'sish
sur'ati, % da

86,3

107,9

2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **30,6** mlrd. so'mga ortdi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-sentabr

93,2 %

6,8 %



7,2 %

92,8 %

2020- y. yanvar-sentabr

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar**

Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,2 %** bilan ustunlik qildi.



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2020- y.
yanvar-sentabr**

**2021- y.
yanvar-sentabr**

**138,0
mlrd. so'm**

**Xizmatlar
hajmi**

**176,4
mlrd. so'm**

79,9 %

**O'sish
sur'ati**

111,3 %

1,7 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

1,6 %






2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Andijon shahriga tegishli – **32,3 %** (2020- yilda **31,7 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ulushlari Ulug'nor tumanida **2,6 %** (2020- yilda **2,6 %**) qayd etildi.



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar (2021 yil yanvar-sentabr)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Andijon viloyati	10 968,1	122,9	104,5
Shahar:			
Andijon sh	3 537,8	125,1	107,9
Xonaobod sh	381,2	119,6	100,4
Tumanlar:			
Oltinko'l	492,4	122,9	100,7
Andijon	605,2	121,2	101,7
Baliqchi	547,3	122,6	100,5
Bo'ston	293,9	118,1	100,2
Buloqbo'shi	421,4	120,6	100,3
Jalaquduq	459,6	120,2	100,9
Izboskan	537,5	121,4	101,1
Ulug'nor	281,7	119,1	100,1
Qo'rg'on-tepa	595,9	124,2	101,0
Asaka	686,4	124,6	102,1
Marhamat	447,5	119,7	100,6
Shahrixon	675,2	124,5	101,3
Paxtaobod	551,9	123,0	100,8
Xo'jaobod	453,2	120,8	100,5

**) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

**2021- yil yanvar-sentabr****Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi**Hajmning
o'sishi****3 414,0
ming so'm****795,9 ming
so'mga**

2021- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 414,0** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **120,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 618,1** ming so'mni tashkil etgan.

120,5 %**O'sish sur'ati**



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

**26 054
birlik**

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

117,5 %

2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi

**3 876
birlikga**

Ularning umumiy sonidagi ulushi

62,3 %




2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **62,3 %**, sanoat **23,0 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **6,6 %** ga yetdi. Qurilish sohasi **8,1 %** ga to'g'ri keladi.

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi
(*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **62,2 %**, sanoat **22,8 %**, qurilish **8,4 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **6,6 %** ni tashkil etgan.




2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



63,1 %

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **63,1 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021- yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **87,1 %** ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.

Tel.: 74-228-30-83